



UDK:159.072(575.1)

Mahmuda JAMOLOVA,

Tayanch doktorant, Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlar tayyorlash instituti

E-mail: mahmudajamolova9297@gmail.com, Orcid id 0009-0006-0457-3684

Nordik xalqaro universiteti dotsenti psix.f.n. N.Lutfullayeva taqrizi asosida

“Z” AVLOD YOSH O'QITUVCHILARIDA EMOTSIONAL INTELLEKT VA KASBIY O'ZLIKNI ANGLASHNING JINS VA YOSH TAFOVUTLARI TAHLILI

Annotsatsiya

Ushbu tadqiqot O'zbekistondagi “Z” avlod yosh o'qituvchilari orasida emotsional intellektning jins va yosh bo'yicha qanday farqlanishini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotda 25-35 yosh oralig'idagi o'qituvchilar ishtirok etishgan. Natijalarni tahlil qilganda, ayol o'qituvchilar EI bilimdonlik va empatiya subshkalalarida erkak hamkasblaridan sezilarli darajada yuqori natija ko'rsatgan. Yosh omili bo'yicha esa 31-35 yoshlilar EI umumiy darajasi, empatiya va ijodkorlik ko'rsatkichlarida 25-30 yoshlilarga qaraganda yuqori natija qayd etgan. Pearson korrelyatsiya tahlili EI umumiy ko'rsatkichi bilan ijodkorlik, oliy nufuzga ega bo'lish o'rtasida o'rtacha kuchli musbat aloqani, subyektiv nazorat bilan esa manfiy bog'liqlikni aniqladi. Natijalar yosh o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashda jins va yosh xususiyatlarini inobatga olgan differentsial psixologik yondashuv zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: emotsional intellekt, “Z” avlod, yosh o'qituvchilar, jins tafovutlari, yosh tafovutlari, kasbiy o'zlikni anglash, korrelyatsiya tahlili.

ANALYSIS OF GENDER AND AGE DIFFERENCES IN EMOTIONAL INTELLIGENCE AND PROFESSIONAL SELF-AWARENESS IN YOUNG TEACHERS OF GENERATION “Z”

Annotation

This study aims to determine how emotional intelligence differs by gender and age among young teachers of Generation Z in Uzbekistan. The study involved teachers aged 25-35. When analyzing the results, female teachers scored significantly higher than their male colleagues on the EI knowledge and empathy sub-scales. Regarding the age factor, 31-35-year-olds showed higher results in general EI levels, empathy, and creativity compared to 25-30-year-olds. Pearson's correlation analysis found a moderately strong positive correlation between the overall EI score and creativity, high prestige, and a negative correlation with subjective control. The results justify the need for a differentiated psychological approach that takes into account gender and age characteristics in the professional training of young teachers.

Keywords: emotional intelligence, Generation Z, young teachers, gender differences, age differences, professional self-awareness, correlation analysis.

АНАЛИЗ ПОЛОВЫХ И ВОЗРАСТНЫХ РАЗЛИЧИЙ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО САМОСОЗНАНИЯ У МОЛОДЫХ УЧИТЕЛЕЙ ПОКОЛЕНИЯ “Z”

Аннотация

Данное исследование направлено на выявление того, как эмоциональный интеллект различается по полу и возрасту среди молодых учителей поколения “Z” в Узбекистане. В исследовании приняли участие учителя в возрасте от 25 до 35 лет. При анализе результатов, женщины-преподаватели показали значительно более высокие результаты, чем их коллеги-мужчины по субшкалам знаний и эмпатии ЕС. Что касается возрастного фактора, то 31-35 летние люди показали более высокие результаты по общему уровню ЭИ, эмпатии и креативности, чем 25-30 летние. Корреляционный анализ Pearson выявил умеренно сильную положительную связь между общим показателем ЭИ и креативностью, высоким авторитетом и отрицательную связь с субъективным контролем. Результаты обосновывают необходимость дифференцированного психологического подхода к профессиональной подготовке молодых учителей, учитывающего половые и возрастные особенности.

Ключевые слова: эмоциональный интеллект, поколение “Z”, молодые учителя, гендерные различия, возрастные различия, профессиональное самосознание, корреляционный анализ.

Kirish. Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligining rasmiy veb-saytida O'zbekistonda davlat, nodavlat va qo'shma OTM lar soni jami 207 ta ekanligini e'lon qildi [14]. Davlat statistika qo'mitasi esa filiallarni ham hisobga olganda 222 ta OTM bo'lib, 2015-2016-yillardagi OTMlar sonidan 3,2 baravarga oshganligi haqida axborot berdi [15]. 9-10 yil ichida OTMlarning bunday tez suratda ko'payishi bir qancha maummolarni yuzaga keltirdi. Shulardan biri bu kadrlar muammosidir. Ayniqda davlat OTMlariga nisbatdan nodavlat OTMlar ko'p bo'lib, ular ko'proq talabalarni jalb qilish uchun bilimli yosh, g'ayratli, chet elda o'qib kelgan yoki ilmiy faoliyat bilan shug'ullanadigan yoshlarga e'tiborni yanada kuchaytirdi.

Lekin yosh o'qituvchilarning kasbiy moslashish va rivojlanish muammolari nafaqat tizimiy, balki chuqur psixologik xarakter kasb etmoqda.

Zamonaviy ta'lim tizimida “Z” avlod vakillarining pedagog kadrlar sifatida ommaviy faoliyat boshlashi o'qituvchilik kasbining psixologik jihatlarni qayta o'rganishni taqozo etmoqda. N. Huve va V. Strauss tomonidan asoslangan avlodlar nazariyasi har bir avlod o'ziga xos ijtimoiy-psixologik profil va qadriyatlar tizimiga ega ekanligini ko'rsatdi [5]. “Z” avlod vakillari bu nuqtai nazardan raqamli muhitda shakllangan, klip tafakkur tarziga ega, gorizontall munosabatlarni afzal ko'ruvchi shaxslar ekanligi bilan farq

qilmoqda Bu avlod vakillari 1997-2010-yy. da tug'ilganlarni tashkil etadi.

Olimlar o'qituvchilar orasida tadqiqot olib borishar ekan hissiy intellektga alohida e'tibor berishmoqda. Hissiy intellekt tushunchasini fanga Salovey va Mayerlar olib kirgan bo'lib quyidagicha ta'riflashgan: "Hissiy intellekt - bu insonning o'zi va boshqalarning his-tuyg'ularini kuzata olish, ularni bir-biridan farqlay bilish hamda bu ma'lumotlardan o'z fikri va xatti-harakatlarini yo'naltirishda foydalana olish qobiliyatini o'z ichiga olgan ijtimoiy intellektning bir qismidir"[11]. Keyinchalik D. Goleman tomonidan boshqaruv psixologiyasi kontekstida keng ommalashtirilgan [3]. Intellektning bu turi hissiyotlarni noto'g'ri boshqarish natijasida yuzaga keladigan shaxsiy, oilaviy va ijtimoiy muammolar bilan bog'liq shaxs shakllanishida alohida rol o'ynaydi va odamlar qabul qiladigan har qanday qarorga ta'sir qiladi [12] M. Jamolova kasbiy o'zlikni anglash va ijtimoiy-hissiy intellekt o'rtasida bog'liqlik borligini yosh o'qituvchilar misolida tadqiq etgan [6]. Markaziy Osiyo mintaqasida ushbu muammoning tadqiqiga T.Kilybayev va boshqalar. muhim hissa qo'shgan. Ular Qozog'iston yosh o'qituvchilarida raqamli muhit ta'sirida shakllanadigan "virtual shaxsiyat" va haqiqiy kasbiy "men" o'rtasidagi ziddiyatni batafsil tahlil etgan [7].

Jins omilining EI ko'rsatkichlariga ta'siri xalqaro adabiyotlarda munozarali bo'lib qolmoqda. Bir qator tadqiqotlar ayol o'qituvchilar empatiya va emotsional bilimdonlik subshkallarida erkak hamkasblaridan yuqori natija ko'rsatishini qayd etadi [2]. Yosh omili bo'yicha esa kasbiy tajribaning ortishi bilan EI ko'rsatkichlari o'sishi kutiladi, ammo bu aloqa barcha madaniy kontekstlarda bir xil namoyon bo'lmaydi [13]. O'zbekiston kontekstida ushbu masala hozirgacha yetarlicha empirik tekshirilmagan. Shu sababli, mazkur tadqiqot Z avlod yosh o'qituvchilarida EI ko'rsatkichlarining jins va yosh bo'yicha farqlanish xarakterini aniqlashga qaratilgan.

1-jadval. EI umumiy bilan o'lchov ko'rsatkichlari korrelyatsiyasi (N = 420)

O'lchovlar (EI Umumiy bilan)	r	p	Sig.
EI Bilimdonlik	0.752	.000	***
EI Boshqarish	0.899	0.000	***
EI Rag'bat	0.915	0.000	***
Empatiya	0.909	0.000	***
O'zga insonlarning kechinmalarini sezish	0.896	0.000	***
Psixemotsional barqarorlik	0.322	0.000	***
Subyektiv nazorat darajasi nazorat	-0.220	0.000	***
Mehnatdan qoniqish	-0.116	0.017	*
Oliy nufuzga ega bo'lish	0.332	0.000	***
Moddiy ta'minlanganlik	0.333	0.000	***
Ijodkorlik	0.420	0.000	***
O'z hissiyotlarini boshqarish	-0.003	0.952	ns

p < .05 * p < .01 *** p < .001 ns – statistik ahamiyatsiz

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, umumiy EI bilan ijodkorlik o'rtasida o'rtacha kuchli musbat korrelyatsiya mavjud (r = 0.420, p < 0.001). Bu natija Ballova Mikushkovaning "Z" avlod o'qituvchilari ijodkorlikka kuchli yo'nalganligini qayd etgan tadqiqoti bilan mos keladi [10]. Subyektiv nazorat darajasi bilan manfiy korrelyatsiya (r = -0.220, p < 0.001) Z avlod vakillarining tashqi boshqaruvga

Metodologiya. Tadqiqot 2025-2026 o'quv yilida O'zbekistonning to'rtta oliy ta'lim muassasasida o'tkazildi. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Guliston davlat universiteti, Andijon davlat universiteti va Nordik xalqaro universitetidagi o'qituvchilar ishtirok etishdi. Umumiy tanlanma hajmi N = 420 yosh o'qituvchidan iborat bo'lib, ularning 178 nafari ayol (%42.4), 242 nafari erkak (%57.6). Yosh taqsimoti: 25-30 yosh guruhi n = 299 (%71.2), 31-35 yosh guruhi n = 121 (%28.8) tashkil etdi. Barcha ishtirokchilar "Z" avlod vakillari sifatida tanlab olingan. Ishtirok ixtiyoriy asosda amalga oshirilgan.

Yosh pedagogning kasbiy o'zligini anglashning o'lchov vositalari sifatida N.Holl emotsional intellektni aniqlash testi, G.Rezapkina "O'qituvchining psixologik portreti" metodikasi, I.Senin Qadriyatlariga yo'nalganlik savolnomasi, I.Rogovning "O'qituvchi shaxsiyatining psixologik yo'nalganligi" metodikalaridan foydalanildi.

Ma'lumotlar Python 3.12 dasturida qayta ishlandi. Tadqiqotda Pearson korrelyatsiya ikki tomonlama tahlili, Velch mustaqil namunalarda t-testning dispersiyalar tengligini talab qilmaydigan variant, jins va yosh guruhlararo farqlarni aniqlash uchun Kohen's d effekt hajmi (kichik: 0.2, o'rta: 0.5, katta: 0.8) kabi usul va mezonlardan foydalanildi. Statistik ahamiyatlilik chegarasi p < 0.05 darajasida belgilandi. Barcha testlar ikki tomonlama amalga oshirilgan.

Natijalar. Korrelyatsiya tahlili natijalariga ko'ra EI umumiy ko'rsatkichi va subshkalar o'rtasidagi ichki korrelyatsiyalar juda kuchli ekanligi aniqlandi. empatiya (r = 0.909, p < 0.001), rag'bat (r = 0.915, p < 0.001), boshqarish (r = 0.899, p < 0.001). Ushbu ko'rsatkichlar N.Holl metodikasining konstrukt validligini tasdiqlaydi. 1-jadvalda EI umumiy ko'rsatkichi bilan boshqa o'lchov vositalari orasidagi asosiy korrelyatsiya natijalari keltirilgan.

moyilligi xususidagi farazni qo'llab-quvvatlaydi. O'zini boshqarish, o'qitish uslubi va I.Rogovning o'qituvchi shaxsiyatini psixologik yo'nalganligi metodikasi ko'rsatkichlari EI bilan ahamiyatsiz korrelyatsiya (p ≥ 0.05) ko'rsatdi. Bu esa ushbu ko'rsatkichlar nisbiy mustaqilligini anglatadi.

Jins bo'yicha guruh farqlari

Mustaqil namunalar t-testi natijalari jins bo'yicha bir qator statistik ahamiyatli farqlarni ko'rsatdi. 2-jadval ushbu natijalarni to'liq ifodalaydi.

2-jadval. Jins bo'yicha t-test natijalari (Ayol n=178, Erkak n=242)

Shkala	Ayol M (SD)	Erkak M (SD)	t	p	Sig.	Kohen's d
EI Umumiy	35.70 (21.70)	31.28 (28.50)	1.807	0.072	ns	0.171
EI Bilimdonlik	5.70 (5.76)	3.39 (6.76)	3.770	0.000	***	0.363
EI Rag'bat	9.95 (5.74)	9.02 (7.39)	1.455	0.146	ns	0.138
Empatiya	9.16 (5.87)	7.85 (7.22)	2.058	0.040	*	0.197
EI Boshqarish	8.01 (6.05)	7.77 (7.59)	0.358	0.721	ns	0.034
O'zga insonlarning kechinmalarini sezish	7.79 (6.31)	6.93 (7.38)	1.273	0.204	ns	0.123
Psixoemotsional barqarorlik	21.56 (2.88)	21.93 (3.42)	-1.199	0.231	ns	-0.115
O'zni boshqarish	16.12 (2.93)	16.34 (2.78)	-0.775	0.439	ns	-0.077
O'qitish uslubi	16.88 (2.37)	16.45 (2.52)	1.781	0.076	ns	0.174
Subyektiv nazorat darajasi	14.19 (2.38)	14.64 (2.89)	-1.751	0.081	ns	-0.168
Mehnatdan qoniqish	15.66 (2.67)	15.10 (2.64)	2.141	0.033	*	0.212
Moddiy taminlanganlik	34.20 (6.61)	32.45 (6.15)	2.750	0.006	**	0.275
Ijodkorlik	36.56 (6.92)	35.56 (7.17)	1.432	0.153	ns	0.141
Tashkilotchilik	6.58 (1.55)	6.71 (1.68)	-0.823	0.411	ns	-0.080

* p < .05 ** p < .01 *** p < .001 ns – ahamiyatsiz

2-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatdiki EI bilimdonlik subshkalasida ayollar (M = 5.70, SD = 5.76) erkaklar (M = 3.39, SD = 6.76) ga nisbatan statistik ahamiyatli darajada yuqori natija ko'rsatdi ya'ni $t(418) = 3.77, p < .001, d = 0.36$ ga teng. Effekt hajmi kichik-o'rta darajaga to'g'ri keladi. Empatiya subshkalasida ham ayollar ustunligi kuzatildi ($t(418) = 2.06, p = .040, d = 0.20$). Biroq, EI umumiy ko'rsatkichi bo'yicha jins farqi statistik ahamiyatga ega emas ($p = .072$).

Respondentlarning yosh bo'yicha farqlari.

Yosh bo'yicha tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, 31-35 yoshlilar 25-30 yoshlilarga qaraganda EI umumiy ($t(418) = -2.46, p = .014, d = -0.23$), EI bilimdonlik ($t = -2.60, p = .010, d = -0.27$), empatiya ($t = -2.79, p = .006, d = -0.26$) va kechinma sezish ($t = -2.51, p = .013, d = -0.25$) subshkalalarida statistik ahamiyatli ravishda yuqori natijalar qayd etdi. Moddiy taminlanganlikka yo'nalganlik ($t = -2.54, p = .012, d = -0.26$) va ijodkorlik ($t = -2.38, p = .018, d = -0.23$) ko'rsatkichlarida ham 31-35 yoshlilar ustunligi kuzatildi.

Qiziqarli jihat: tashkilotchilik ko'rsatkichida 25-30 yoshlilar 31-35 yoshlilarga qaraganda yuqori natija ($t = 3.20, p = .002, d = 0.35$) ko'rsatdi. Bu esa "Z" avlod xususiyatlari kichik yoshlilarda yaqolroq namoyon bo'layotganini bildiradi.

Muhokama. Ayol o'qituvchilarda EI bilimdonlik va empatiya subshkalalarida kuzatilgan ustunlik bir qator nazariy jihatdan izohlanishi mumkin. Birinchidan, Shanmugasundaram va Mohamad ta'kidlaganidek, ayol o'qituvchilar o'quvchilarning his-tuyg'u va ehtiyojlarini sezishda ancha samarali bo'lib, bu biologik va ijtimoiylashuv omillarining birgalikdagi ta'siri natijasida shakllanadi [13]. Biroq emotsional intellekt umumiy ko'rsatkichi bo'yicha jins farqi statistik ahamiyatga ega emasligi ahamiyatlidir. Ya'ni jins EI ning subshkala darajasidagi komponentlarga ta'sir qilsa-da, umumiy EI darajasi murakkab o'zgaruvchi ekanligi va uni faqat jins orqali tushuntirish yetarli emasligini ko'rsatadi. O'zbekiston kontekstida ushbu natijani talqin qilishda madaniy-ijtimoiy omillarni, xususan, erkak o'qituvchilardan kasbiy rolga to'liq kirishish kutilishini inobatga olish zarur.

d: Kohen's effekt hajmi

Ayollar moddiy taminlanganlikka yo'nalganlik bo'yicha ham yuqori natija ko'rsatgani bir qarashda kutilmagan natija.

Yosh farqlari bo'yicha natijalarga ko'ra, 31-35 yoshlilar emotsional intellekt umumiy ko'rsatkichi, empatiya va emotsional bilimdonlik ko'rsatkichlarida 25-30 yoshlilarga qaraganda yuqori natija ko'rsatishi kasbiy tajribaning emotsional intellekt rivojlanishiga ta'sirini ko'rsatadi. Bu natija Goleman va Boyatzisning emotsional kompetentliklar tug'ma emas, balki tajriba va maxsus rivojlantirish orqali shakllanadi degan asosiy qoidasi bilan uyg'undur [4]. Tashkilotchilik ko'rsatkichida 25-30 yoshlilar ustunligi alohida e'tiborni talab qiladi. Bu holat F. Rothschild tadqiqotida ham yangi faoliyatga kirishgan yosh mutaxassislarining kasbiy vazifalarni aniq tashkillashtirish va bajarishga kuchli yo'nalganligini qayd etilgan [10]. Boshqacha aytganda, yangi muhitda o'zini isbotlash ehtiyoji tashkiliy faollikni kuchaytiradi. 31-35 yoshli o'qituvchilar esa kasbiy "o'ziga xoslik" bosqichiga o'tib, emotsional barqarorlikka ko'proq e'tibor qaratadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot O'zbekistondagi "Z" avlod yosh o'qituvchilari orasida emotsional intellektning jins va yosh bo'yicha farqlanish xarakterini birinchi marta yirik empirik tanlanmada o'rganib, quyidagi asosiy xulosalarga keldi: Birinchidan, ayol o'qituvchilar EI bilimdonlik va empatiya subshkalalarida erkak hamkasblaridan statistik ahamiyatli darajada yuqori, ammo EI umumiy ko'rsatkichi bo'yicha jins farqi ahamiyatsizligi kuzatildi. Ikkinchidan, 31-35 yoshli o'qituvchilar EI umumiy empatiya va ijodkorlik ko'rsatkichlarida 25-30 yoshlilarga qaraganda yuqori, bu kasbiy tajribaning EI rivojlanishiga ijobiy ta'sirini tasdiqlovchi dalil hisoblanadi. Uchinchidan, EI umumiy ijodkorlik, oliy nufuzga yo'nalganlik va moddiy taminlanganlik bilan musbat, subyektiv nazorat darajasi bilan manfiy korrelyatsiyaga ega. Amaliy jihatdan ushbu natijalar yosh o'qituvchilarni tayyorlash va maktabga moslashish dasturlarini ishlab chiqishda jins va yosh xususiyatlarini inobatga olgan differentsial psixologik yondashuv zarurligini asoslaydi.

ADABIYOTLAR

1. Birta-Székely N. The Importance of Professional Self-Knowledge in the Initial and In-Service Training of Teachers // The Paris Conference on Education 2023. – Paris, 2023. – P. 583–589.
2. Davydova Y.V. Gender aspect of research of emotional intelligence of teenagers // RUDN Journal of Psychology and Pedagogics. – 2010. – N. 4. – P. 113–118.
3. Goleman D. Working with Emotional Intelligence. – New York: Bantam Books, 1998.
4. Goleman D., Boyatzis R. Social intelligence and the biology of leadership // Harvard Business Review. – 2007. – Vol. 86. – N. 9. – P. 74–81.
5. Howe N., Strauss W. Millennials Rising: The Next Great Generation. – New York: Vintage Books, 2000.
6. Jamolova M. Emotsional va ijtimoiy intellektning o'qituvchilar kasbiy o'zligini anglashda roli // UzMU xabarlari. – 2025. – B. 71–73. – DOI: 10.69617/nuuz.v1i1.3.1.7053.
7. Kilybayev T. et al. Development of digital competencies of the generation of young teachers in Kazakhstan // Pedagogy and Psychology. – 2023. – T. 57. – N. 4. – P. 43–49.
8. Mikušková E. Generational Differences in Teachers' Professional Competencies // European Journal of Educational Research. – 2023. – Vol. 12. – N. 4. – P. 1657–1665. – DOI: 10.12973/eu-jer.12.4.1657.
9. Nelson D.B., Low G.R. Emotional Intelligence: Achieving Academic and Career Excellence. – Upper Saddle River: Prentice Hall, 2003.
10. Rothschild F. Generational differences in emotional intelligence in global human resource management // World Journal of Advanced Research and Reviews. – 2025. – Vol. 26. – N. 1. – P. 3858–3868. – DOI: 10.30574/wjarr.2025.26.1.1541.
11. Salovey P., Mayer J.D. Emotional intelligence // Imagination, Cognition and Personality. – 1990. – Vol. 9. – N. 3. – P. 185–211.
12. Sanz-Martín, D.; Caracuel-Cáliz, R.F.; Alonso-Vargas, J.M.; Ramírez-Granizo, I.A. Emotional Intelligence in Gen Z Teaching Undergraduates: The Impact of Physical Activity and Biopsychosocial Factors. Eur. J. Investig. Health Psychol. Educ. 2025, 15, 123. <https://doi.org/10.3390/ejihpe15070123>
13. Shanmugasundaram U., Mohamad A. Social and Emotional Competency of Beginning Teachers // Procedia – Social and Behavioral Sciences. – 2011. – Vol. 29. – P. 1788–1796. – DOI: 10.1016/j.sbspro.2011.11.426.
14. <https://stat.edu.uz/>
15. https://t.me/statistika_rasmiy/5824?utm_source=in_materials